

YO'RIQNOMALAR TARJIMASI

Xolmatova Roxatoy

Andijon davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti tarjima nazaryasi va amaliyoti 1 - bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Abdurahmanov To'raxon

Andijon davlat chet tillar instituti, Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola yo'riqnomalar tarjimasining ahamiyati va uning xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi. Unda yo'riqnomalarning texnik, maishiy hamda dori vositalari bo'yicha turlari ko'rib chiqilgan va ularning foydalanuvchi xavfsizligini ta'minlash, aniq va tushunarli muloqotni yaratish hamda texnik izchillikni saqlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada tarjimonning vazifalari ham batafsil ko'rib chiqilgan: terminlarni bir xil uslubda standartlashtirish, matnning pragmatik ohangini saqlash, grafik elementlar va diagrammalarni to'g'ri joylashtirish, hamda madaniy kontekstga moslash (adaptatsiya) kabi masalalar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.*

Maqolada, shuningdek, tarjima jarayonida qo'llaniladigan asosiy strategiyalar – so'zma-so'z tarjima, funksional ekvivalentlik, matnni qisqartirish yoki kengaytirish, va terminlarni standartlashtirish – tahlil qilingan. Muallif zamonaviy texnologiya rivojlanishi va chet mamlakatlardan kelayotgan mahsulotlar ko'pligi fonida yo'riqnomalar tarjimasining nafaqat amaliy, balki ilmiy ahamiyatini ham alohida ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *yo'riqnoma tarjiması, texnik matn, terminologiya, pragmatik ohang, standartlashtirish, madaniy adaptatsiya, foydalanuvchi xavfsizligi, grafik elementlar, funksional ekvivalentlik, so'zma-so'z tarjima.*

Tarjima — bu ijodiy jarayondir.

Susan Bassnett

Doimo texnologiya yoki har qanday oddiy buyum bilan ishlayotganda biz yo'riqnomalardan foydalanamiz. U bizga xavfsizlik qoidalari texnik muammolarni olsini olish va asosiysi o'sha narsadan asosan kim uchun nima uchun va qanday foydalanish kerakligini aytadi. Shuning yuchun ham tarjima sohasida yo'riqnomalar tarjiması muhim hisoblanib, to'g'ri tarjima qilish texnik xavfsizlik, aniq muloqot va

foydalanuvchi tajribasi uchun muhim hisoblanadi. Bu mavzu nima uchun men uchun muhim mavzulardan biri, chunki hozirda yurtimizga boshqa chet mamlakatlaridan ko'plab mahsulot va tovarlar kelmoqda. Bu mahsulotlar aylanmasi bozor iqtisodiyotida ularning yo'riqnomasini ko'p tillar qatorida o'zbek tiliga tarjimasi uchun talab oshib bormoqda. Yo'riqnomalarning ma'no va mazmun jihatdan bir necha turlari bor. Bular - texnik yo'riqnomalar, maishiy foydalanish yo'riqnomalari, dori vositalarining qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatmalar, elektronika va dasturiy ta'minot uchun ishlab chiqilgan ko'rsatmalardir. Ko'p hollarda maishiy yo'riqnomalar o'quvchi shunishi uchun oson sodda va amaliy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Texnik yo'riqnomalar esa biroz murakkabroq va termin, atamalardan foydalaniladi. Ko'p hollarda yo'riqnomalarni umumiy tuzilishi quyidagicha bo'ladi. Kirish qismi, xavfsizlik choralariga oid ma'lumotlar, foydalanish tartibi, texnik ko'rsatkichlar, ba'zi hollarda diagramma yoki rasmi ko'rsatmalar bilan boyitiladi. Tarjimon bu uslublarni va asosiysi ma'noni saqlab qolgan holda matnni maqsad tiliga o'girishi kerak. Yo'riqnomalar boshqa matnlardan farqli o'laroq qisqa aniq va ko'pincha buyruq gaplar qatnashganligi bilan ajrab turadi. (Turn on, press the button, keep away) kabi buyruq fe'llarini to'g'ri pragmatic ohangda berishi kerak. Ingliz tilida buyruq gaplar uchun qo'llaniladigan neytral, rasmiy ohangni uzbek tilida ham saqlab qolish kerak. Yo'riqnomalar tarjimasidagi eng muhim qismi bu terminlar. Bitta termin butun matn davomida bir xil shaklda qo'llanishi zarur. Va ularga doim qat'iy, mos ekvivalenti tanlanishi lozim. Tarjimon hatto yo'riqnomalarni dizayni bilan ham ishlashi kerak. Yo'riqnomalarda ko'p hollarda jadval, rasmiy belgilar, punktli ro'yxatlar bo'ladi. Bunday grafik elementlarni tarjimon tarjima qilish paytida ularni to'g'ri joylashtirib qo'yishi ham kerak. Yo'riqnoma tarjimasida uchraydigan eng katta muammo bu muqobil ekvivalentlikni topishdir. Ba'zi texnik so'zlar o'zbek tili uchun butunlay yangi bo'lishi yoki kam ishlatilgan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ularni tarjima qilishda tarjimon bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun tarjimon xalqaro qo'llanmalar, texnik lug'atlar va ishlab chiqaruvchi kompaniyaning rasmiy terminlar bazasidan foydalanishi kerak. Va yana o'zi uchun texnik matnlar va lug'atlarni eng kamida 3 ta tildagi bazasini yaratib borishi kerak. Yana bir katta muammo bu ingliz tilidagi qisqa aniq ma'noga ega so'zlarni o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjimasi. Agar yo'riqnomalarda mantiqiy izchillik to'g'ri saqlanmasa, agar qo'shma so'zlar notog'ri talqin qilinsa xavfsizlik bo'limidagi ogohlantirishlar yetarlicha aniq berilmaydi va jiddiy muammolarga sabab bo'ldi. Madaniy farqlar ham katta muammolardan biri hisoblanadi. Ba'zi yo'riqnomalarda g'arb davlatlari uchun mo'ljallangan ogohlantirishlar yoki foydalanish qoidolari bo'ladi, ularni o'zbek tiliga

moslashtirish talab etiladi. Bu jarayon “adaptatsiya” deb ataladi va mazmunning mohiyatini yo‘qotmagan holda uni mahalliy madaniyatga mos shaklga keltirishni anglatadi. Yo‘riqnoma qilishni bir necha bosqichlari bo‘lib bulardan asosiylari so‘zma so‘z tarjima, funksional ekvivalentlik, qisqartirish va kengaytirish strategiyasiva standartlashtirish. So‘zma so‘z tarjima texnik matnlarni tarjima qilishda ancha qo‘l keladi chunki bunday qo‘llanmalarda texnik terminlar, jarayon nomlari yoki qismlar nomi aynan o‘sha holatda saqlanishi kerak bo‘ladi. Ammo ba‘zi hollarda mazmunga asoslanib tarjima qilish kerak bo‘ladi. Haddan tashqari so‘zma so‘z tarjima qilinsa matn pragmatik ohangini yo‘qotadi. Shuning uchun doim tarjimom matn turiga qarab yuqoridagi strategiyalardan eng muqobil variantini tanlab tarjima qilishi mumkin. Yo‘riqnoma tarjima qilayotgandagi eng muhim jarayonlardan biri bu terminlarni standartlashtirish. Tarjimon matn boshida oxirigacha bir xil atamalrdan foydalanishi shart. Bundan tashqari, transkripsiya va transliteratsiya qoidalari ham muhim: xorijiy brendlar, modellar yoki maxsus texnik nomlar noto‘g‘ri yozilsa, yo‘riqnomaning mazmuni buzilib, foydalanuvchida chalkashlik paydo bo‘ladi. Amaliy jihatdan qaraganda, tarjimon har bir bo‘limni alohida tahrir qilishi, xavfsizlik bo‘limini esa yana bir bor tekshirishi maqsadga muvofiq, chunki eng ko‘p xato uchraydigan qism aynan shu bo‘lim hisoblanadi. Bundan tashqari yuqorida aytib o‘tkanimizdek tarjimon hatto yo‘riqnomlarni grafik chizmalarig hamalihida e‘tibor berib o‘tishi kerak.

Yo‘riqnoma tarjimasi – bu mas‘uliyati katta ish bo‘lib, unda har bir so‘z aniq va tushunarli bo‘lishi, mantiqiy ketma-ketlik saqlanishi va rasmiy ohangni saqlash muhim hisoblanadi. Turli texnik va kundalik qurilmalarda ishlatiladigan yo‘riqnomalarni to‘g‘ri tarjima qilish, foydalanuvchiga qulaylik yaratish, xatoliklar va noxush vaziyatlarning oldini olish hamda ishlab chiqaruvchining ma‘lumotini to‘liq yetkazish imkonini beradi. Shu jarayonda tilshunoslar, tarjimonlar va texnik mutaxassislar birgalikda ishlashi tarjimaning sifatini oshiradi. Kelajakda esa raqamli yo‘riqnomalar va multimediya ko‘rsatmalari ko‘paygani sayin, tarjimada yangi yondashuvlar talab qilinadi. Shu bois, yo‘riqnoma tarjimasi sohasining ilmiy va amaliy ahamiyati uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gile, D. (2009). Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. Amsterdam: John Benjamins.
2. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
3. <https://www.elstranslations.com/textbook-translation/>
4. <https://scispace.com/papers/a-textbook-of-translation-4feui64bvg>